



## BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'YINLAR YORDAMIDA O'QUVCHILARNI INTELLEKTUAL QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

**Jamatova Malika Sherqulovna**

*Osiyo Xalqaro Universiteti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim)  
mutaxassisligi magistranti*

Bugungi kunda yoshlarni har tomonlama bilimli, intellektual rivojlangan barkamol avlod qilib tarbiyalash muhim va dolzarb masalalardandir, chunki har bir millatning ertangi kuni uning yoshlari qo'lidadir. Bizga ma'lumki intellekt inson aqliy faoliyatining asosidir. Intelekt rivojlanishi uchun inson o'z ustida ishlashi kerak, kitob o'qishi, bilim olishi, jismoniy faoliyatda doimiy harakatda bo'lishi lozim. Inson intellektining asosiy ozuqasi tajriba va bilimlar hisoblanadi, shuning uchun ham bilim olishdan to'xtab qolgan inson fikrlash qobiliyati va ravon nutqini yo'qotadi. Doimiy izlanishda bo'lish inson ong faoliyatiga keng foyda keltiradi. Yoshlarda turli foydali malaka hamda ko'nikmalarni shakllantirish, har tomonlama jismoniy va aqliy rivojlantirish uchun eng samarali, qulay yosh ularning boshlang'ich sinf davriga to'g'ri keladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual rivojlanishining muhim xususiyatlari shundan iboratki, bu yoshda barcha kognitiv jarayonlarda o'zgarishlar boshlanadi hamda ularda yangi bilim va ko'nikmalarga qiziqish ortadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual fikrlashini rivojlantirish uchun eng qulay va samarali davr hisoblanadi. O'quvchilar faoliyatining asosiy turlariga o'yin, o'qish, mehnatni kiritgan holda uning asosiy yo'nalishlarini bilish, ijtimoiy, sport, badiiy, texnik, hunarmandchilik, emotsional faoliyatlariga ajratish mumkin. Bularni inobatga olgan holda o'qitishda, aqliy rivojlantirishda o'yin metodidan foydalanis samarali usul hisoblanadi.

Intellektual so'zining ma'nosi quyidagicha izohlanadi: 1. Ma'naviy ehtiyojlar bilan yashovchi yoki aqliy faoliyatning eng yuksak va murakkab turlari bilan shug'ullanuvchi (shaxs) Masalan: Ayniqsa ilmiy, ya'ni intellektual kishilar fikrini o'zgartirishda ma'muriy yondashish yomon oqibatlariga olib keladi. 2. Intellektga oid; akdiy, ma'naviy. Masalan: Intellektual mulk. Ushbu qonun eng avvalo yoshlarning intellektual qobiliyatlarini hisobga oladi. Bizningcha, endi mamlakatimizning intellektual salohiyatini yuksaltirish hamda xalq xo'jaligining turli sohalarida malakali mutaxassislar tayyorlab borish maqsadida iste'dodli yoshlarni aniqlash<sup>2</sup>.

Aqliy faoliyatni tarbiyalaydigan, uning mahsuldorligini oshiradigan, ijodiy xislatlarni rivojlantiradigan an'anaviy metodlar doirasiga quyidagilarni kiritish muki: 1. Maktablarda fanlardan ilmiy to'garaklar. 2. O'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarida o'quvchilarning ilmiy jamiyatlari. 3. O'quvchilar va o'quvchilarning har xil doirada o'tadigan olimpiadalari. 4. O'quvchilar ilmiy-tadqiqot ishlari. 5. Ijodiy ishlar, ko'riklar, konkurslar, musobaqalar va hokazo. Zamonaviy o'qitish tizimida hozirda ikki turdagi metodlardan keng

<sup>2</sup> <https://uz.wiktionary.org/wiki/intellektual>



foydalanishmoqda: 1. Interaktiv 2. Intellektual Interaktiv metod asosan sun'iy intellektlarga tayangan bo'ladi. Bu metoda o'qituvchi, ta'lim beruvchi mutaxassis zamonaviy texnologiyalarga asosan dars o'tadi. Ushbu metoda o'quvchining intellektual salohiyati rivojlana boradi. Interaktiv o'qitish Interaktiv so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib, "inter" — o'zaro, "act"- faoliyat qilmoq ma'nosini bildiradi. Interaktivlik, bu o'zaro munosabatda bo'lmoq, dialog rejimida o'qimoq ma'nosini bildiradi. Shu sababli interaktiv o'qitishdialogli o'qitish demakdir.<sup>3</sup>

O'qituvchilar o'quv tajribalarini rejalashtirishda yosh o'spirin intellektual rivojlanishidagi farqlarni hisobga olishlari kerak. Ushbu xilma-xillikni hal qilish uchun o'qituvchilar o'quvchilarning keng ko'lamlil bilim qobiliyatlariga mos keladigan ta'limiy yondashuvlar va materiallarning assortimentini taqdim etishlari kerak. Masalan, konkret mutafakkirlar ko'proq tuzilgan o'quv tajribalarini talab qilsa, mavhum fikr yurituvchilar ko'proq qiyin faoliyatga muhtoj. Bundan tashqari, yosh o'spirinlar o'zlarining fikrlarini tushunadigan va biladigan o'qituvchilarga muhtoj. O'qituvchilar o'quv dasturlarini hayotiy kontseptsiyalar atrofida rejalashtirishlari kerak va yosh o'spirinlar uchun mazmunli bo'lgan haqiqiy tarbiyaviy faoliyatni (masalan, tajriba, ma'lumotlarni tahlil qilish va sintez qilish) ta'minlashlari kerak. Yosh o'spirinlarning qiziqishlari rivojlanib borayotganligi sababli, ular o'zlarining ta'lim dasturlari davomida izlanish imkoniyatlarini talab qiladilar. Intellektual rivojlanishni rivojlantirish uchun ushbu yoshlar o'zlarining dunyosi bilan to'g'ridan-to'g'ri o'zaro munosabatda bo'lishlari kerak - tengdoshlar va kattalar bilan suhbat va amaliy tajriba orqali. Xuddi shunday, yosh o'spirinlar ham demokratik tamoyillarni o'rganishlari va ularga kirishlari kerak. O'qituvchilar, shuningdek, maktab, uy va jamiyat qoidalarining sabablarini o'rganish uchun forumlar o'tkazishlari mumkin.

Umuman olganda, o'yinlar o'z mazmuni, tashkil etilishi, bolalarga ta'sir ko'rsatish darajasiga ko'ra xilma-xildir. Bunda dastlab matematika umumbashariy madaniyatning muhim qismi hisoblanishini e'tiborga olish joizdir. Bu jihat matematikani gumanitar yo'nalishdagi talabalar ham chuqur o'rganishlarini bildiradi. Bunga asosiy sababa gumanitar fanlarda matematikaning ahamiyati beqiyos katta ekanidadir. Barcha gumanitar fanlar obyektlarning umumiyliigi, ularning xossalari va ular orasidagi munosabatlarga ega.

O'yin faoliyat sifatida - maqsadni belgilab olish, rejalashtirish va amalga oshirish, natijalarni tahlil qilishni qamrab oladi va bunda shaxs sub'ekt sifatida o'z imkoniyatlarini to'la amalga oshiradi.

O'yin texnologiyalarning mohiyati: -O'yin jarayon sifatida - o'yin tuzilmasida o'ynash uchun olingan rollar; -Rollarni ijro etish vositasi bo'lgan o'yin xarakatlari; -O'yin tushunchalarni o'zlashtirishda o'qitish metodi va mustaqil texnologiya sifatida foydalaniladi.

O'yinlarning turlari: Immitatsion o'yinlar - Bunday o'yinlardan maqsad qaysidir tashkilot, muassasa va uning qismlari faoliyati andoza qilinadi. Voqealar, kishilarnig biror

<sup>3</sup> Ikromova M. E. "PEDAGOGS" international research journal. Volume-28, Issue-1, February – 2023



faoliyati (ish bitirish majlislari, rejani muhokama qilish, suhbatlar o'tkazish va b.), faoliyat holati va shartlari andoza qilib olinishi mumkin. Senariyda bo'nday o'ynash to'la tuzilmasi yozib chiqilgan va imitatsiya qilinadigan ob'ektlar va jarayonlar belgilanadi. Operatsion o'yinlar - Bunday o'yinlarda aniq o'ziga xos voqea xodisaning bajarilishi mashq qilinadi. Operatsion o'yinlar ish jarayoniga xos modellashtiriladi. Rol ijro etish o'yinlari - Unda konkret shaxsning hulqi, hatti-harakati, o'z vazifalari va majburiyatlarini bajarilish taktikasi mashq qilinadi.<sup>4</sup>

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, maktab ta'limi tizimida pedagogik jarayonni tashkil etishda bolaning va tarbiyachining munosabatiga alohida e'tibor qaratish zarurati jarayonga yangicha yondoshuvni talab etib bormoqda. Yangicha yondoshuvning mohiyati - pedagogik texnologiya mohiyati bilan mazmunan birlikni tashkil etadi. SHuning uchun tarbiyachilar tomonidan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishning o'yinli texnologiyalaridan unumli foydalanish talab etiladi.

#### ADABIYOTLAR:

1. Ikromova M. E. "PEDAGOGS" international research journal. Volume-28, Issue-1, February – 2023
2. Пирманова Г.Н. О'SMIRLARNING INTELLEKTUAL VA IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY VA PEDAGOGIK ASOSLARI . International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE) DOI: 10.48047/INT-JECSE/V15I3.2 ISSN: 1308-5581 Vol 15, Issue 03 2023
3. Abdullayeva Sh. A. Sportchilarning tarbiyalanganlik darajasini tashxislash metodlari. - Toshkent: Kamalak, 2002.
4. Abdullayeva Sh. A., Axatova D. A., Sayitov S. S. va boshkalar. Pedagogika. O'quv qo'llanma. - T.: Fan, 2004.
5. Abdullayev A. Talaba va sport. - Toshkent: Moliya, 2015.
6. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. - М.: Педагогика, 1989.
7. Бернштейн Н.А. Биохимические особенности скелетной мускулатуры. Киев:Вища школа, 1998. - 214 с. 7. Бондарчук А.П. Объем тренировочных нагрузок и деятельность цикла развития спортивной формы. // Теория и практика физической культуры. - 1998.
8. Bo'riyeva A.N. Ta'lim jarayonida o'yin usulidan foydalanishning afzalliklari.

<sup>4</sup> Bo'riyeva A.N. Ta'lim jarayonida o'yin usulidan foydalanishning afzalliklari. file:///C:/Users/user/Downloads/Bo%E2%80%99riyeva+Aziza+117-121+JUSR.pdf